MILLIY SUG'URTA BOZORIDA SUG'URTA XIZMATLARINI BOSHQARISH VA UNING OPTIMALLIGINI TA'MINLASH YO'LLARI.....	1399
Umirov Abdusalom To'rayevich	
MOLIVAVIY INSTRUMENTLAR (IFRS 9) HISOB	1406
Zaripova Sayohat Zafarovna	
PLYONKA QOPLAMALI POLIZ EKINLARI EKISH TEXNIKASIDA PUSHTA SHAKLLANTIRUVCHI ISHCHI ORGANLAR SAMARADORLIGINI OSHIRISH	1411
Nigmatjonov Sardor Abdumannobovich	
O'ZBEKISTONDA SOLIQ MA'MURCHILIGIDA TO'LOVLAR TIZIMINING BUGUNGI KUNDAGI HOLATI TAHLILI.....	1416
Tangirqulov G'ulom Baxtiyrovich	



KAMERAL SOLIQ TEKSHIRUVIDA SMART TEXNOLOGIYALARNING SHAKLLANISHI	1421
Mamaraimov Ilhomjon Rajabboyevich	
O'ZBEKISTON KORXONALARIDA KAPITAL TUZILMASI VA MOLIVAVIY MUSTAQILLIK DARAJASI	1427
Asomidinova Mohigulbonu Oybek qizi	
TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN KICHIK BIZNES LOYIHALARINI KREDITLASH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	1432
Norqobilova Nargiza Abdigodirovna	
ASSESSMENT OF PRICING STRATEGIES APPLIED BY LEADING RETAIL CHAINS IN UZBEKISTAN	1438
Anvar DEBERDIYEV	
ZARAFSHON VODIYSIDA XALQARO TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI	1442
Turayev Abduvoxid Kuldashovich	
THE IMPACT OF DIGITAL BANKING SERVICES ON FINANCIAL INCLUSION AND POPULATION WELFARE	1448
Olimjon Narkulovich Djuraev, Ermuminov Elbek Erkin o'g'li	
AGROKLASTERLARNING SAMARADORLIGIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR	1454
Berdiyev Abdumalik Hakimovich	
O'ZBEKISTONDA YASHIL MOLIVALASHTIRISHNI JORIY ETISH ISTIQBOLLARI	1460
Mamayusupova Shahina Ulug'bek qizi	
MILLIY IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA XORIJIY INVESTITSIYALARNI JALB ETISH: NAZARIYA VA AMALIYOT	1466
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li	
NODAVLAT NOTIJORAT TASHKILOTLARI FAOLIYATIDA SUBSIDIYA MABLAG'LARINING NATIJADORLIGINI BAHOLASHNING USLUBIY ASOSLARI	1473
Xolbekov Ulug'bek Toshpulat o'g'li	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA RISK-MENEJMENT TIZIMINI ZAMONAVIY BOSHQARUV MODELLARI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH	1479
Ashurov Furkatjon Shuxratovich	
XIZMATLAR SOHASIDA KICHIK BIZNES KORXONALARINI INNOVATSION RIVOJLANTIRISHNI DAVLAT TOMONIDAN QO'LLAB-QUVVATLASHNING MUHIM YO'NALISHLARI	1483
Ulmasova Oyul Baxtiyorovna	
SOLIQ NIZOLARINI HAL ETISHDA MUQOBIL NIZOLARNI BARTARAF ETISH USULLARINING IQTISODIY AHAMIYATI	1490
Solihova Xumora Xasan qizi	
TABIRKORLIK BILAN SHUG'ULLANUVCHI JISMONIY SHAXSLARNI SOLIQQA TORTISH: NAZARIY ASOSLAR VA AMALIY YECHIMLAR	1493
Hasanov Husinboy Xudayberganovich	
SANOAT KORXONALARIDA ICHKI AUDIT VA NAZORAT TIZIMINING BOSHQARUV SAMARADORLIGIGA TA'SIRI	1499
Xusanova Malohat Mingnorovna	
O'ZBEKISTONDA SOLIQ MEXANIZMINING KORXONALAR MOLIVAVIY-XO'JALIK FAOLIYATIGA TA'SIRINI TAHLILIY VA INSTITUTSIONAL BAHOLASH	1505
Babaxonov Ja'far Muxiddinovich	
YOQILG'I-ENERGETIKA KORXONALARIDA INVESTITSIYA XARAJATLARINI TARIF SIYOSATI ORQALI QOPLASH MEXANIZMLARI	1513
Shukurillaev Jahongir Botir o'g'li	
ЭЛЕМЕНТЫ СТАТИСТИЧЕСКОГО АНАЛИЗА РЕЗУЛЬТАТИВНОСТИ РЕГИОНАЛЬНОЙ СОЦИАЛЬНОЙ ПОЛИТИКИ	1521
Рахимова Мадина Шухрат кизи	



INFRATUZILMA LOYIHALARINI MOLIYALASHTIRISHDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIGINING ZARURATI VA UNING SHAKLLARI

Shodiyev Akmal O'ktamjon o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi

E-mail: akmalshodiyev98@gmail.com

ORCID: 0009-0006-6262-2894.

Annotatsiya. Mazkur maqolada infratuzilma loyihalarini moliyalashtirishda davlat-xususiy sheriklik (DXSh) mexanizmining ahamiyati, uning iqtisodiy mohiyati hamda zamonaviy shakllari ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotda davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlikning iqtisodiy samaradorlikni oshirishdagi o'rni, moliyaviy resurslarni jalb qilish imkoniyatlari hamda risklarni optimal taqsimlash mexanizmlari yoritilgan. Shuningdek, O'zbekistonda DXSh tizimining rivojlanish bosqichlari, huquqiy asoslari va amaliyotdagi institutsional o'zgarishlar tahlil qilinib, 2024–2030-yillarga mo'ljallangan strategik yo'nalishlar ko'rib chiqilgan.

Maqolada xalqaro tajriba asosida davlat-xususiy sheriklikning asosiy modellari, jumladan, BOT, BOOT, DBFO va boshqa shakllari tizimli ravishda tasniflanib, ularning infratuzilma loyihalarida qo'llanish xususiyatlari ochib berilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, DXSh mexanizmi infratuzilma rivojini jadallashtirish, davlat byudjeti yukini kamaytirish hamda barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda muhim moliyaviy-institutsional vosita hisoblanadi.

Kalit so'zlar: davlat-xususiy sheriklik, infratuzilma loyihalari, investitsiyalar, moliyalashtirish mexanizmi, iqtisodiy rivojlanish, risklarni taqsimlash, BOT modeli, BOOT modeli, DBFO modeli, institutsional muhit, davlat siyosati.

Abstract. This article scientifically analyzes the importance of the public-private partnership (PPP) mechanism in financing infrastructure projects, its economic essence, and its modern forms. The study examines the role of cooperation between the public and private sectors in improving economic efficiency, the opportunities for attracting financial resources, and the mechanisms for optimal risk allocation. In addition, the stages of development of the PPP system in Uzbekistan, its legal framework, and institutional changes in practice are analyzed, along with the strategic directions planned for 2024–2030.

Based on international experience, the article systematically classifies the main models of public-private partnership, including BOT, BOOT, DBFO, and other forms, and reveals their specific features in the implementation of infrastructure projects. The research findings indicate that the PPP mechanism is an important financial and institutional tool for accelerating infrastructure development, reducing the burden on the state budget, and ensuring sustainable economic growth.

Key words: public-private partnership, infrastructure projects, investments, financing mechanism, economic development, risk allocation, BOT model, BOOT model, DBFO model, institutional environment, public policy.

Аннотация. В данной статье научно проанализированы значение механизма государственно-частного партнёрства (ГЧП) в финансировании инфраструктурных проектов, его экономическая сущность и современные формы. В исследовании раскрыта роль сотрудничества между государственным и частным секторами в повышении экономической эффективности, привлечении финансовых ресурсов, а также в оптимальном распределении рисков. Кроме того, проанализированы этапы развития системы ГЧП в Узбекистане, её правовые основы и институциональные изменения в практике, а также рассмотрены стратегические направления, рассчитанные на 2024–2030 годы.

В статье на основе международного опыта систематизированы основные модели государственно-частного партнёрства, в том числе BOT, BOOT, DBFO и другие формы, а также раскрыты особенности их применения в инфраструктурных проектах. Результаты исследования показывают, что механизм ГЧП является важным финансово-институциональным инструментом ускорения развития инфраструктуры, снижения нагрузки на государственный бюджет и обеспечения устойчивого экономического роста.

Ключевые слова: государственно-частное партнёрство, инфраструктурные проекты, инвестиции, механизм финансирования, экономическое развитие, распределение рисков, модель BOT, модель BOOT, модель DBFO, институциональная среда, государственная политика.

KIRISH

Davlat-xususiy sheriklik konsepsiyasi jahon miqyosida ko'plab rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda samarali iqtisodiy strategiya sifatida qo'llanilayotgan muhim mexanizmlardan biri hisoblanadi. Ushbu mexanizm davlat va xususiy sektor o'rtasidagi o'zaro manfaatli amaliy hamkorlik asosida shakllanib, mavjud hamda rejalashtirilayotgan infratuzilma tarmoqlarini rivojlantirish, shuningdek, ijtimoiy xizmatlar sifatini oshirishda alohida ahamiyat kasb etadi. Davlat-xususiy sheriklik modelini amaliyotga joriy etishdan asosiy maqsad davlatning o'z funksiyalarini samarali bajarishi jarayonida moliyaviy imkoniyatlarini kengaytirish, xususiy sektor investitsiyalarini jalb qilish orqali turli soha va tarmoqlarga taalluqli infratuzilmani modernizatsiya qilish hamda uni zamonaviy texnik-texnologik jihatdan qayta jihozlashdan iborat.

Bozor munosabatlarining rivojlanishi davlat va xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasida yangi iqtisodiy hamkorlik shakllarining vujudga kelishiga xizmat qilmoqda. Sanoati rivojlangan mamlakatlarda keng qo'llanilayotgan bunday iqtisodiy munosabatlarning muhim turlaridan biri davlat-xususiy sheriklikdir. Hozirgi sharoitda davlat-xususiy sheriklikning mohiyati, xususiyatlari, tamoyillari, evolyutsiyasi va huquqiy asoslarini o'rganish, shuningdek, ushbu mexanizmning mamlakatimizda rivojlanish istiqbollari bo'yicha ilmiy asoslangan xulosalar ishlab chiqish dolzarb ahamiyatga ega. O'zbekistonda davlat-xususiy sheriklik munosabatlari izchil kengayib borayotgani ushbu yo'nalishdagi ilmiy tadqiqotlarning amaliy ahamiyatini yanada oshirmoqda.

Samarali boshqariladigan davlat-xususiy sheriklik modeli ishtirokchilar o'rtasida mas'uliyat, majburiyat va moliyaviy risklarni maqbul tarzda taqsimlash imkonini beradi. Davlat-xususiy sheriklik jarayonlarida qo'mitalar, vazirliklar, mahalliy hokimiyat organlari va davlat korxonalari kabi davlat institutlari muhim o'rin tutadi. Xususiy sektor vakillari sifatida esa loyihani amalga oshirish uchun zarur moliyaviy, texnik va boshqaruv resurslariga ega bo'lgan mahalliy hamda xorijiy kompaniyalar, yuridik shaxslar va investorlar ishtirok etishi mumkin. Shu jihatdan davlat-xususiy sheriklik infratuzilma loyihalarini moliyalashtirish, boshqarish va samarali amalga oshirishda davlat hamda xususiy sektor manfaatlarini uyg'unlashtiruvchi muhim institutsional mexanizm sifatida namoyon bo'ladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Iqtisodchi olimlar Knyupfer va Vernerlarning fikriga ko'ra, Amerika Qo'shma Shtatlarida davlat-xususiy sheriklik deganda davlat va xususiy kompaniya o'rtasida kelishilgan shaklda davlat mulkida ishtirok etish hamda an'anaviy ravishda davlat hokimiyati organlari zimmasiga yuklatilgan funksiyalarni bajarish imkonini beruvchi shartnoma tushuniladi¹.

Davlat-xususiy sheriklikning keyingi yillarda jahon iqtisodiyotida tutgan o'rni tobora ortib borayotganini xalqaro moliya institutlari tomonidan berilgan ta'riflarda ham ko'rish mumkin. Xususan, eng yirik salohiyat va nufuzga ega xalqaro moliya institutlaridan biri bo'lgan Jahon banki davlat-xususiy sheriklikni davlat va xususiy tomonlar o'rtasida qo'shimcha investitsiyalarni jalb qilish, infratuzilma xizmatlarini ishlab chiqish va taqdim etish, shuningdek, byudjet mablag'laridan foydalanish samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi bitimlar majmui sifatida izohlaydi².

Xorijiy olim va mutaxassislar tomonidan davlat-xususiy sheriklikka berilgan iqtisodiy ta'riflar ham alohida ilmiy ahamiyatga ega. Mazkur yo'nalishda ko'plab yondashuvlar mavjud bo'lib, ular orasida davlat va xususiy sektor hamkorligining iqtisodiy mazmuni, moliyaviy mexanizmlari hamda institutsional asoslarini yoritib beruvchi ta'riflar muhim o'rin tutadi.

Professor M. B. Gerrard o'zining davlat-xususiy sheriklik, moliya va rivojlanishga bag'ishlangan maqolasida ushbu tushunchaga quyidagicha yondashadi: davlat-xususiy sheriklik ijtimoiy xizmatlar sifatini yaxshilash yoki davlat aktivlarini samarali boshqarish maqsadida xususiy kapitalni, ayrim hollarda esa davlat kapitalini jalb qilish imkonini beruvchi hamkorlik shaklidir³.

Professor U. Sharifxo'jayev va D. Abdullayevlar "Davlat-xususiy sheriklik va uning tarkibi" nomli maqolasida davlat-xususiy sheriklikka berilgan ta'riflarni qiyosiy tahlil qilib, o'zlarining mualliflik ta'rifini ham ilgari surganlar. Ularning fikricha, davlat-xususiy sheriklik iqtisodiyotning davlat sektori bilan bog'liq vazifalarni yanada samarali bajarish maqsadida xususiy sektorni shartnoma asosida jalb etishga qaratilgan, xarajatlar, risklar, ikki tomonlama majburiyatlar ijrosi hamda vakolatlarining taqsimlanishi bilan bog'liq munosabatlar majmuidir⁴.

Mazkur ta'rif mazmunan milliy qonunchilikda berilgan yondashuvga yaqin bo'lsa-da, mohiyatan kengroq

1 Knyupfer, Verner. Davlat-xususiy sherikliklar (DXSh) ko'chmas mulk majmualarini boshqarishning zamonaviy shakllaridan foydalanish kontekstida. – URL: <http://www.duma.gov.ru/sobstven/analysis/corporation/161007/5knyupf>

2 A. V. Belitskayaning "Davlat-xususiy sheriklikni huquqiy tartibga solish" nomli monografiyasiga retsenziya // Tadbirkorlik huquqi. – 2012. – № 1.

3 Gerrard M. B. Public-Private Partnerships // Finance and Development. – 2001. – Vol. 38, No. 3. – P. 48.

4 Sharifxo'jayev U. U., Abdullayev D. A. Davlat-xususiy sheriklik va uning tarkibi // Bulletin of Science and Practice. – 2021. – Vol. 7, No. 5. – URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/public-private-partnership-and-its-definition/viewer>




talqin etilgan. Unda davlat-xususiy sheriklikning moliyaviy, tashkiliy, huquqiy va institutsional jihatlarini qamrab olingan bo'lib, ushbu mexanizmning amaliy ahamiyatini yanada chuqurroq ochib berishga xizmat qiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Xususiy sektorning davlat-xususiy sheriklik munosabatlaridagi o'zni biznes jarayonlarini samarali tashkil etish, bozor munosabatlari sharoitida menejmentni takomillashtirish, moliyaviy operatsiyalarni oqilona yuritish hamda innovatsion faoliyatni rivojlantirish orqali namoyon bo'ladi. Shuningdek, xususiy sektor shartnoma shakliga qarab investitsion faoliyatda ham faol ishtirok etishi mumkin.

Davlat-xususiy sheriklik munosabatlarida xususiy sektorning investitsiya kiritish salohiyati, malakali tajribasi, professional va samarali boshqaruv ko'nikmalari, qaror qabul qilishdagi moslashuvchanligi va tezkorligi, novatorlikka intilishi hamda innovatsion texnologiyalarga moyilligi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, davlat sektorining zarur institutsional muhitni shakllantirishi, huquqiy asoslarni takomillashtirishi, funksional infratuzilmani rivojlantirishi, davlat kafolatlari va davlat investitsiyalari orqali ishtirok etishi davlat-xususiy sheriklik munosabatlarini samarali tashkil etishning muhim shartlari hisoblanadi.

Ilg'or jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, davlat-xususiy sheriklik loyihalarini transport, energetika, kommunal xizmatlar, sog'liqni saqlash, ta'lim, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, suv ta'minoti, chiqindilarni boshqarish va boshqa ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga ega sohalarni qamrab oladi. Ushbu yo'nalishlarda davlat va xususiy sektor hamkorligining kengayishi infratuzilma loyihalarini moliyalashtirish imkoniyatlarini oshirish, xizmatlar sifatini yaxshilash hamda iqtisodiy rivojlanishning barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi (1-rasm).



1-rasm. Davlat-xususiy sheriklik asosida amalga oshiriladigan loyihalar⁵

2017-yildan buyon O'zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning muhim yo'nalishlaridan biri xususiy sektor ishtiroki orqali infratuzilmani rivojlantirishni jadallashtirish hisoblanadi. Ushbu jarayon davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi dastlabki qonunning qabul qilinishi, DXShni rivojlantirish bo'yicha maxsus agentlikning tashkil etilishi hamda tarmoq idoralari tomonidan yirik infratuzilma loyihalarini DXSh asosida ilgari surish amaliyotining kengayishi bilan bevosita bog'liqdir.

2021-yilda 40 dan ortiq yirik va o'rta DXSh loyihalarini amalga oshirish rejalashtirilgani davlat idoralari hamda xalqaro bozor ishtirokchilari uchun ushbu mexanizmning uzoq muddatli ahamiyatga ega ekanini ko'rsatdi. 2020-yilda mazkur dastur doirasida bir qator muhim natijalarga erishildi. Jumladan, 2021-yil yanvar oyida "Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida"gi qonunga kiritilgan muhim o'zgartirishlar tasdiqlandi va imzolandi. Dastur doirasida boshlangan dastlabki kelishuvlar yakuniy bosqichga yetib, qayta tiklanuvchi energetika,

sog'liqni saqlash va transport kabi sohalarda yangi loyihalarni amalga oshirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratdi.

Yangi tahrirdagi DXSh qonuni hukumat, bozor ishtirokchilari, xalqaro maslahatchilar hamda rivojlanish moliya institutlari o'rtasidagi ko'p yillik muloqotlar natijasi sifatida shakllandi. Mazkur huquqiy asos jadal rivojlanayotgan iqtisodiyot ehtiyojlariga mos ravishda xalqaro bozor standartlariga tayangan bo'lib, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, tender jarayonlarini soddalashtirish va shaffoflashtirish, valyuta risklaridan muvozanatli himoyalanih hamda xalqaro arbitraj mexanizmlaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi. Bu esa yangi tarmoqlarni rivojlantirish, shartnoma andozalarini ishlab chiqish va kelgusi yillarda ko'proq loyihalarni amalga oshirish uchun DXSh salohiyatini oshirishga turtki beradi.

DXSh infratuzilma loyihalarini amalga oshirishda muhim moliyaviy va tashkiliy vosita bo'lib, hukumatning infratuzilma maqsadlariga erishish yo'llaridan biri sifatida qaralishi lozim. DXShni umumiy rejalashtirish mexanizmining tarkibiy qismiga aylantirish uchun bir nechta muhim yo'nalishlarni izchil amalga oshirish zarur. Birinchidan, tarmoq idoralarida DXSh bo'yicha qiziqish va xabardorlikni oshirish, shuningdek, ushbu mexanizmdan qaysi hollarda foydalanish maqsadga muvofiqligini aniqlash bo'yicha institutsional salohiyatni kuchaytirish kerak. Bunda loyihaning umumiy tannaxrini to'g'ri baholash va iqtisodiy samaradorligini aniqlash muhim ahamiyatga ega. Ikkinchidan, loyihalarni tanlash siyosatini takomillashtirish hamda qaysi loyihalarni DXSh shaklida amalga oshirish lozimligini belgilovchi mexanizmni ishlab chiqish zarur. Bu jarayonda "pulning qiymati" metodologiyasidan izchil va bir xil yondashuv asosida foydalanish muhimdir. Uchinchidan, mazkur mexanizmlarning to'g'ri amalga oshirilishini ta'minlash maqsadida markaziy rejalashtirish organlari uchun maxsus o'quv va maslahat tizimini rivojlantirish lozim.

Infratuzilma loyihalarini puxta tayyorlash DXShni muvaffaqiyatli amalga oshirishning muhim shartlaridan biridir. Texnik-iqtisodiy asoslarni ishlab chiqish, loyihani baholash va bitimlar bo'yicha professional maslahatchilarni jalb qilish katta xarajatlarni talab qilishi mumkin. Shu bois loyiha tayyorlash jamg'armasini shakllantirish davlat idoralariga loyiha hujjatlarini tayyorlash, tender jarayonlarini tashkil etish va malakali maslahatchilarni jalb qilish imkonini beradi. Bunday mexanizm g'olib ishtirokchi tomonidan xarajatlarni qoplash amaliyoti orqali davlat byudjeti yukini kamaytirishga, bir vaqtning o'zida ko'proq loyihalarni bozorga olib chiqishga hamda maslahat xizmatlaridan tezkor foydalanishga xizmat qiladi.

Loyihaning moliyaviy yopilishiga erishish muhim bosqich bo'lsa-da, u davlat va xususiy sheriklar uchun ko'p yillik hamkorlik davrining boshlanishi hisoblanadi. Shu sababli hukumat hamkori tomonidan malakali kadrlar bilan ta'minlangan loyiha monitoringi guruhini shakllantirish, davlat hamkori sifatidagi vazifalarni bajarish bo'yicha aniq jarayonlar va yo'riqnomalarni ishlab chiqish hamda ichki institutsional salohiyatni oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirda tender bosqichida bo'lgan loyihalar bo'yicha mas'ul agentliklar rivojlanish bo'yicha hamkorlar ko'magida monitoring va boshqaruv rejalarini oldindan ishlab chiqishi maqsadga muvofiqdir.

O'zbekistonda infratuzilma loyihalarini moliyalashtirishda mahalliy valyutadagi uzoq muddatli resurslar bazasini kengaytirish dolzarb masalalardan biridir. Bu, asosan, loyiha moliyalashtiruv uchun zarur kredit muddati va mahalliy banklarning depozit bazasi o'rtasidagi muddatlar tafovuti bilan bog'liq. Mazkur holatni yumshatish maqsadida hukumat Bangladesh tajribasida samarali qo'llanilgan yondashuvdan foydalanishi mumkin. Ya'ni hukumat yoki boshqa manfaatdor investorlar tomonidan kapitallashtirilgan, mahalliy valyutada infratuzilma loyihalarini moliyalashtirishga ixtisoslashgan bankdan tashqari moliyaviy vositachini tashkil etish muhim omil hisoblanadi.

O'zbekiston infratuzilmani rivojlantirish kun tartibiga DXSh mexanizmini samarali integratsiya qilish bo'yicha istiqbolli yo'lni boshlab berdi. Izchil siyosat, puxta rejalashtirish va loyihalarni sifatli amalga oshirish orqali mamlakat barqaror iqtisodiy o'sish uchun zarur bo'lgan zamonaviy infratuzilmani shakllantirishga xizmat qiluvchi raqobatbardosh DXSh dasturini rivojlantirishi mumkin.

Davlatimiz rahbarining 2024-yil 4-martdagi PQ-109-son⁶ qarori ijrosini ta'minlash doirasida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 20.10.2025-yildagi PQ-308-son⁷ "2024–2030-yillarda O'zbekiston Respublikasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilindi.

Mazkur qarorda "O'zbekiston – 2030" strategiyasiga muvofiq, 2030-yilgacha DXSh loyihalariga kamida 30 milliard AQSh dollari miqdorida xususiy investitsiyalarni jalb etish bo'yicha maqsadli ko'rsatkichlarni ta'minlash, hududlarda zarur ijtimoiy-iqtisodiy infratuzilmani rivojlantirish, yuqori iqtisodiy o'sishga hissa qo'shish hamda elektr energiyasi ishlab chiqarish sohasida DXSh loyihalarini amalga oshirish bo'yicha to'plangan muvaffaqiyatli tajribani boshqa tarmoqlarga tatbiq etish nazarda tutilgan.

Ushbu qaror bilan tasdiqlangan 2024–2026-yillarda davlat-xususiy sheriklikning ustuvor loyihalarini amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlar hamda 2024–2030-yillarda davlat-xususiy sheriklik asosida amalga oshiriladigan loyihalar dasturi doirasida qator ishlarni bajarish rejalashtirilgan.

6 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 04.03.2024 yildagi PQ-109-son <https://lex.uz/docs/-6854841>

7 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 20.10.2025 yildagi PQ-308-son <https://lex.uz/uz/docs/-7776360>



Xususan, aholiga qulay va xavfsiz transport infratuzilmasidan foydalanish imkoniyatini yaratish maqsadida kamida 1000 km zamonaviy pullik avtomobil yo'llarini qurish va modernizatsiya qilish belgilangan. Jumladan, 2024-yilda Toshkent – Samarqand avtomobil yo'li, 2026-yilda esa Toshkent – Andijon avtomobil yo'li qurilishini boshlash rejalashtirilgan. Ushbu loyihalar yirik shaharlar o'rtasida yuqori tezlikdagi avtomobil transporti qatnovini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, 2027-yil 1-iyulgacha elektr energiyasini taqsimlash tarmoqlarini, 2027-yil oxirigacha esa tabiiy gaz taqsimlash tarmoqlarini xususiy operatorlarga o'tkazishni nazarda tutuvchi shartnomalarni imzolash rejalashtirilgan. Bunda yillik energiya yo'qotishlarini kamida ikki baravarga kamaytirish ko'zda tutilmoqda.

Shuningdek, 2028-yilgacha barcha eskirgan sug'orish nasos stansiyalarini modernizatsiya qilish bo'yicha kelishuvlarga erishish, elektr energiyasini 30 foizgacha qo'shimcha tejash hamda har bir hududda suv ta'minoti va kanalizatsiya tarmoqlarini modernizatsiya qilish va boshqarishga xususiy kompaniyalarni jalb etish rejalashtirilgan. 2028-yil yakuni bo'yicha aholini toza va uzluksiz ichimlik suvi bilan ta'minlash darajasini 87 foizga, markazlashgan kanalizatsiya bilan qamrov darajasini esa 30 foizga yetkazish nazarda tutilgan.

Bundan tashqari, 2026-yildan boshlab har yili 400 mingdan ortiq o'quvchi o'rniga ega zamonaviy ta'lim muassasalari va maktabgacha ta'lim tashkilotlarini barpo etish maqsadida DXSh tamoyillari asosida kamida 100 ta maktab hamda 100 ta maktabgacha ta'lim muassasasini qurish va boshqarishni tashkil etish rejalashtirilgan. Shuningdek, 300 mingdan ortiq o'quvchiga mo'ljallangan ta'lim muassasalarini tashkil etish, ilg'or texnologiyalar asosida tibbiy xizmat ko'rsatish imkoniyatlarini kengaytirish hamda 100 ming nafardan ortiq bemorga xizmat ko'rsatadigan ko'p tarmoqli shifoxonalarni qurib, ularni xususiy operatorlar boshqaruviga o'tkazish nazarda tutilgan.

Ushbu chora-tadbirlar nafaqat iqtisodiyotning asosiy tarmoqlarini rivojlantirishga, balki mamlakatning xalqaro nufuzini mustahkamlashga ham xizmat qiladi. Zamonaviy infratuzilmani yaratish, ta'lim va tibbiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, shuningdek, investitsiyalar hajmini oshirish natijasida aholining hayot sifati yaxshilanadi hamda O'zbekistonning jahon miqyosidagi investitsiyaviy jozibadorligi ortadi⁸.

Osiyo-Tinch okeani mintaqasidagi aksariyat rivojlanayotgan mamlakatlarda infratuzilma sohasida davlat-xususiy sheriklik nisbatan yangi amaliyot hisoblanadi. Ko'plab hukumatlar o'z mamlakatlarida DXShni rivojlantirish bo'yicha turli chora-tadbirlarni amalga oshirayotgan bo'lsa-da, davlat sektorida institutsional salohiyatni yanada kuchaytirish zarurati mavjud. Hozirga qadar ayrim mamlakatlarda DXSh loyihalarini qo'llab-quvvatlash, davlat xizmatchilari malakasini oshirish, yo'riqnomalar va resurs materiallarini ishlab chiqish bo'yicha institutsional mexanizmlar shakllantirilgan. Bunday mexanizmlarning rivojlanishi loyihalarni sifatli ishlab chiqish, samarali amalga oshirish hamda jamoatchilik orasida DXShning mazmuni va afzalliklari bo'yicha to'g'ri tasavvur hosil qilishga xizmat qiladi.

Infratuzilma loyihalari mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Elektr tarmoqlari, transport infratuzilmasi, suv ta'minoti va boshqa sohalarida samarali hamda barqaror infratuzilmani shakllantirish iqtisodiy o'sishni rag'batlantiradi, aholining yashash sifatini yaxshilaydi va biznes faoliyati samaradorligini oshiradi. Shu bilan birga, yirik infratuzilma loyihalarini moliyalashtirishda davlat resurslari bilan bir qatorda xususiy sektor kapitali va tajribasini jalb qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli davlat-xususiy sheriklik mexanizmi dunyo amaliyotida keng qo'llanilmoqda.

Dunyo bo'ylab hukumatlar infratuzilmani moliyalashtirishning strategik ahamiyatini chuqur anglab, soliqlar, davlat qarzlari va boshqa an'anaviy moliyalashtirish manbalaridan foydalanib kelmoqda. Biroq 2008-yildagi global moliyaviy inqiroz va undan keyingi davrda ko'plab mamlakatlarda byudjet intizomini kuchaytirish zarurati infratuzilma loyihalarini moliyalashtirishda yangi yondashuvlarni talab etdi. Shu munosabat bilan OECD xususiy sektorning infratuzilma loyihalarini moliyalashtirishdagi ishtirokini kengaytirish zarurligini ta'kidlagan.

Infratuzilma loyihalari murakkabligi, uzoq muddat davom etishi va ko'p bosqichli boshqaruvni talab qilishi bilan ajralib turadi. Shu bois bunday loyihalarda xarajatlarning oshishi, muddatlarning cho'zilishi yoki loyiha yakunlangandan keyin kutilgan samaradorlikka erishish bilan bog'liq risklar yuzaga kelishi mumkin. Mazkur risklarni kamaytirish uchun turli shartnomaviy mexanizmlar va moliyalashtirish shakllaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Shartnomaviy yondashuvlar davlat-xususiy sheriklik shakllari va an'anaviy davlat buyurtmasi asosidagi shartnomalar orqali amalga oshirilishi mumkin. DXShda ayrim risklar xususiy sektor zimmasiga o'tkaziladi, an'anaviy shartnomalarda esa asosiy mas'uliyat ko'proq davlat tuzilmalari zimmasida qoladi. Shu bilan birga, DXSh xususiy sherikning loyihadagi ishtirok darajasi, huquq va majburiyatlarning taqsimlanishi hamda moliyalashtirish usullariga qarab turli shartnomaviy shakllarni o'z ichiga oladi.

Shartnomaviy yondashuvlar va moliyalashtirish shakllarining turli kombinatsiyalari infratuzilma loyihalarini amalga oshirishda muhim ahamiyatga ega. Ularni tasniflash orqali qaysi moliyalashtirish va boshqaruv shakllari amaliyotda ko'proq qo'llanilishini aniqlash mumkin. Har bir mamlakatda eng ko'p foydalaniladigan shartnoma

shakllari iqtisodiy sharoit, huquqiy baza, institutsional salohiyat va xususiy sektorning rivojlanish darajasiga bog'liq holda farqlanadi. Shu jihatdan OECDga a'zo va a'zo bo'lmagan davlatlar tajribasini qiyosiy o'rganish DXSh mexanizmlarini yanada takomillashtirishga xizmat qiladi.

Yo'llar, portlar, aloqa, energetika va kommunal xizmatlar kabi sohalarni qamrab oluvchi infratuzilma iqtisodiyotning muhim tayanchi hisoblanadi. Rivojlangan, samarali va zamonaviy infratuzilma iqtisodiy o'sish, hududlararo integratsiya, investitsiyaviy faollik va aholi farovonligini oshirishga sezilarli hissa qo'shadi. Shu sababli infratuzilmaga investitsiya kiritish nafaqat rivojlanayotgan, balki sanoatlashgan mamlakatlar uchun ham ustuvor vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

Infratuzilma xizmatlarini ko'rsatishda xususiy sektorning ishtiroki xizmat sifati, texnologik nou-xau, loyihalarni boshqarish, kapital jalb qilish va innovatsion yechimlarni joriy etish imkoniyatlarini kengaytiradi. Shu bilan birga, xususiy sektor ishtirokini samarali yo'lga qo'yish uchun me'yoriy-huquqiy baza, institutsional muhit, shaffof tender tizimi va risklarni oqilona taqsimlash mexanizmlarini takomillashtirish muhim hisoblanadi.

Davlat-xususiy sheriklik munosabatlarini loyiha shartlari va xususiyatlariga mos ravishda muvofiqlashtirish uchun xususiy sektor hamda hukumat hamkorligining amaliy va mos shakllarini tanlash muhimdir. Mamlakatimizda qo'llanilayotgan davlat-xususiy sheriklikning asosiy modellari turli soha va tarmoqlarda o'ziga xos tartibda qo'llaniladi. Bu esa DXSh mexanizmining infratuzilma loyihalarini moliyalashtirish, boshqarish va samarali amalga oshirishdagi ahamiyatini yanada oshiradi (1-jadval).

1-jadval

Davlat-xususiy sheriklikning asosiy shakllari⁹

DXSh shakli	Mazmuni
Qurish – boshqarish – o'tkazish (Build – Operate – Transfer, BOT)	O'zaro kelishuv mexanizmi asosida obyektning qurish, shartnoma muddati davomida undan foydalanish, ya'ni boshqarish, biroq egalik qilish huquqini olmaslik hamda shartnoma muddati yakunida obyektning davlat tasarrufiga o'tkazishni nazarda tutadi.
Qurish – egalik qilish – boshqarish – o'tkazish (Build – Own – Operate – Transfer, BOOT)	O'zaro kelishuv mexanizmi asosida obyektning qurish, shartnoma muddati davomida egalik qilish huquqi asosida undan foydalanish va shartnoma yakunida obyektning davlat tasarrufiga o'tkazishni anglatadi.
Qurish – o'tkazish – boshqarish (Build – Transfer – Operate, BTO)	Mazkur modelda obyekt qurilishi yakunlanishi bilan davlat tasarrufiga o'tkaziladi. Xususiy sherik esa shartnoma muddati davomida obyektga xizmat ko'rsatadi va ko'rsatilgan xizmatlar uchun iste'molchilardan belgilangan tartibda to'lovlar undiriladi.
Qurish – egalik qilish – boshqarish (Build – Own – Operate, BOO)	O'zaro kelishuv mexanizmi asosida obyektning qurish, shartnoma muddati davomida egalik qilish huquqi asosida undan foydalanish hamda shartnoma yakunida ham egalik qilish huquqining xususiy sherikda saqlanib qolishini nazarda tutadi.
Qurish – boshqarish – xizmat ko'rsatish – o'tkazish (Build – Operate – Maintain – Transfer, BOMT)	Ushbu modelda obyekt quriladi, boshqariladi va unga shartnoma muddati davomida xizmat ko'rsatiladi. Shartnoma yakunida obyekt davlat tasarrufiga o'tkaziladi. Egalik qilish huquqi, odatda, davlat tasarrufida saqlanadi.
Loyihalash – qurish – egalik qilish – boshqarish – o'tkazish (Design – Build – Own – Operate – Transfer, DBOOT)	O'zaro kelishuv mexanizmi asosida obyektning loyihalash, qurish, shartnoma muddati davomida egalik qilish huquqi asosida undan foydalanish va shartnoma yakunida obyektning davlat tasarrufiga o'tkazishni ifodalaydi.

Yuqoridagi 1-jadvalda dunyo mamlakatlari, xususan, Rossiya Federatsiyasi amaliyotida qo'llanilayotgan davlat-xususiy sheriklik modellari keltirilgan. Rivojlangan mamlakatlarning infratuzilmani rivojlantirish bo'yicha samarali davlat-xususiy sheriklik modellari o'rganish va ularning maqbul jihatlari mamlakatimiz amaliyotiga joriy etish alohida ahamiyat kasb etadi. Bunday shakldagi hamkorlik asosida loyihalarni amalga oshirish davlat uchun ham, xususiy sektor uchun ham iqtisodiy jihatdan manfaatli bo'lishi mumkin. Shu bilan birga, kutilgan iqtisodiy samaradorlikka erishish uchun xarajatlarni oqilona boshqarish, risklarni to'g'ri taqsimlash hamda shartnoma majburiyatlarining to'liq va sifatli bajarilishini ta'minlash muhim hisoblanadi.

Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda transport, energetika hamda suv ta'minoti kabi asosiy

9 Shavkatov N. Sh. Davlat-xususiy sheriklik amaliyotida moliyaviy munosabatlarni tashkil etish metodologiyasini takomillashtirish: monografiya. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2023. – 27-b.



infratuzilma tarmoqlarini takomillashtirish zarurati keng e'tirof etilmoqda. Infratuzilmaga investitsiya jalb qilish muhitini yaxshilash uchun moliyalashtirish tizimida islohotlar va innovatsion yondashuvlar ham muhim ahamiyatga ega. Taklif etilayotgan turli chora-tadbirlar orasida davlat va xususiy sektor o'rtasidagi yaqin hamkorlik samarali infratuzilma xizmatlarini tashkil etish hamda iqtisodiy rivojlanishni rag'batlantirishning muhim omili sifatida qaraladi.

Shu nuqtayi nazardan, davlat-xususiy sheriklik an'anaviy davlat xaridlari tushunchasiga nisbatan murakkabroq, ko'p tomonlama va o'zaro bog'liq iqtisodiy-huquqiy mexanizm sifatida namoyon bo'ladi. DXShning kengroq talqinida maxsus maqsadli loyiha kompaniyasi, ya'ni SPV (*Special Purpose Vehicle*) loyiha homiylari va kreditorlar ishtirokida tashkil etiladi. Bunda kreditorlarning ishtiroki o'z kapitali yoki qarz mablag'lari shaklida ifodalanishi mumkin. Mazkur yondashuv loyiha moliyalashtiruv, risklarni taqsimlash va infratuzilma obyektlarini samarali boshqarish imkoniyatlarini kengaytiradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Jahonda barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash, yangi ish o'rinlarini yaratish va aholi daromadlarini oshirishda qulay investitsiyaviy muhit hamda investitsion faollik muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois asosiy kapitalga investitsiyalarni moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish, investitsiyalardan foydalanish samaradorligini oshirish, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish omillarini baholash, shuningdek, investitsiyalarni rag'batlantirishga qaratilgan fiskal va moliyaviy instrumentlarning samaradorligini aniqlash bo'yicha ilmiy tadqiqotlarga ustuvor darajada e'tibor qaratilmoqda.

Davlat-xususiy sheriklik milliy iqtisodiyotning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga ega tarmoqlarini rivojlantirish, infratuzilma loyihalarini moliyalashtirish va davlat hamda xususiy sektor manfaatlarini uyg'unlashtirishga xizmat qiluvchi muhim institutsional-huquqiy mexanizm hisoblanadi. Mazkur tizimning asosini teng huquqlilik, o'zaro manfaatli hamkorlik, risk va foydani adolatli taqsimlash, shuningdek, davlat va xususiy sektor harakatlarini muvofiqlashtirish tamoyillari tashkil etadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, davlat-xususiy sheriklik infratuzilma loyihalarini amalga oshirishda moliyaviy resurslarni keng jalb qilish, davlat byudjeti yukini kamaytirish, xizmatlar sifatini oshirish va innovatsion boshqaruv yondashuvlarini joriy etishda samarali vosita sifatida namoyon bo'ladi. Ayniqsa, transport, energetika, ta'lim, sog'liqni saqlash, suv ta'minoti va kommunal xizmatlar kabi sohalarda DXSh mexanizmlaridan foydalanish ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni jadallashtirishga xizmat qiladi.

Davlat-xususiy sheriklik munosabatlarini loyiha shartlari va xususiyatlariga mos ravishda muvofiqlashtirish uchun xususiy sektor hamda davlat hamkorligining eng maqbul shakllarini tanlash muhimdir. Mamlakatimizda qo'llanilayotgan DXSh modellari turli soha va tarmoqlarda o'ziga xos tarzda amalga oshirilmoqda. Shu sababli xalqaro tajribani chuqur o'rganish, huquqiy va institutsional asoslarni takomillashtirish, risklarni oqilona taqsimlash hamda loyihalar monitoringini kuchaytirish davlat-xususiy sheriklik tizimining samaradorligini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, davlat-xususiy sheriklik infratuzilma loyihalarini moliyalashtirishda strategik ahamiyatga ega bo'lib, mamlakatda investitsiyaviy faollikni oshirish, zamonaviy infratuzilmani rivojlantirish va barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining "Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida"gi Qonuni. – 2019-yil 10-may, O'RQ-537-son. <http://lex.uz/docs/-4329270>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-avgustdagi PQ-308-son "Jamoatchilik infratuzilmasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. – Toshkent, 2024. <https://lex.uz/uz/docs/-7089556>
3. Knyupfer, Verner. Davlat-xususiy sherikliklar davlat mulki majmualarini boshqarishning zamonaviy shakllaridan foydalanish kontekstida.
4. Gubin E. P. Retsenziya na monografiyu A. V. Belitskoy "Pravovoye regulirovaniye gosudarstvenno-chastnogo partnerstva" // Predprinimatelskoye pravo. – 2012. – № 1.
5. Gerrard M. B. Public-Private Partnerships, Finance and Development. – 2001. – Vol. 38, No. 3. – P. 48.
6. Sharifxo'jayev U. U., Abdullayev D. A. Davlat-xususiy sheriklik va uning tarkibi // Bulletin of Science and Practice. – 2021. – Vol. 7, No. 5. – URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/public-private-partnership-and-its-definition/viewer>
7. Shavkatov N. Sh. Davlat-xususiy sheriklik amaliyotida moliyaviy munosabatlarni tashkil etish metodologiyasini takomillashtirish: monografiya. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2023. – 27-b.
8. World Bank. Public-Private Partnerships Reference Guide. Version 3.0. – Washington, DC: World Bank, 2017.
9. OECD. Making Blended Finance Work for Sustainable Development. – Paris: OECD Publishing, 2019.
10. Asian Development Bank. Public-Private Partnership Monitor. – Manila: Asian Development Bank, 2020.
11. Yescombe E. R. Public-Private Partnerships: Principles of Policy and Finance. – Amsterdam: Elsevier, 2018.
12. Grimsey D., Lewis M. K. Public-Private Partnerships: The Worldwide Revolution in Infrastructure Provision. – Cheltenham: Edward Elgar Publishing, 2015.
13. World Bank. Private Participation in Infrastructure (PPI) Report. – Washington, DC: World Bank, 2022.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 3

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100